

## **DARSLARNI SAMARALI TASHKIL QILISHDA TURLI INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH**

*Aygul Satipova Iavadullayevna Xorazm viloyati*

*Urganch tumani 35-sonli maktabning*

*boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

*Dilfuza Qurbonboyeva Egamberganovna*

*Xorazm viloyati Urganch tumani*

*35-sonli maktabning fizika fani o'qituvchisi*

*Muhayyo Sayidova Maxsudovna Xorazm viloyati*

*Urganch tumani 35-sonli maktabning*

*texnologiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola darslarni samarali tashkil qilishda turli interfaol o'yinlardan foydalanish, darslarni sifati va o'quvchilarni bilim saviyasini oshirishda interfaol ta'lif metodlarini ahamiyati va dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish haqida ma'lumotlar berilgan hamda hozirgi paytda ta'lif jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni foydalanishni afzalliklari va muhim ahamiyati haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** interfaol ta'lif metodlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lif muassasalari, an'anaviy darslar.

### **Introduction:**

Hozirgi vaqtida ta'lif jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash, o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lif oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lif oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

### **Materials and Methods:**

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lif jarayoni samaradorligini kafolatlaydigan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha katta tajribalar asosini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar deb ataladi. Interfaol ta'lif usullari hozirgi kunda barcha turdag'i ta'lif muassasalarida eng keng tarqalgan va keng qo'llaniladigan usullardir. Shu bilan birga, interfaol ta'lif usullarining ko'plab turlari mavjud bo'lib, ular o'quv jarayonining deyarli barcha vazifalarini amalga oshirish uchun mos keladi. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lif metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash

muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol usul - faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro munozarada fikrlash jarayonida, birlik bilan hal qilishdir. Bumetodning afzalligi shundaki, butun faoliyat talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi va uni mustaqil hayotga tayyorlaydi.

**Results and Discussions:** ta'lim, metodika, ta'lim vositalari, didaktika, mashhg'ulot, mutafakkirlar, faoliyat, iroda sohasi, zamonaviy usullar, interfaol usul.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar va vositalar samaradorligiga bog'liq bo'lib, u ta'lim nazariyasida asosiy o'rnlardan birini egallaydi.

"Metod" — yunoncha "metodos" — "yo'l" degan so'zdan paydo bo'lib, u, tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatdir.

Ta'lim metodlari - o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi. O'qitish metodlari ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta'lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta'lim metodi o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir.

Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, ya'ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta'lim jarayonining mohiyatini va tamoyillarini to'g'ri anglash natijasidir. Ta'lim materiali ta'lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig'iga bog'liq. Pedagogik qarashlarda nazariya qancha kam ifodalangan bo'lsa, ta'lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog'liq bo'ladi. Pedagogika fani maktablar va ta'lim beruvchilarning ilg'or ish tajribalarini umumlashtiradi, an'anaviy ta'limning ilmiy asoslarini ko'rsatib beradi, o'qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi.

Shu sababli ham ta'lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganish yo'li fikr yuritishning didaktik-materialistik usullarini, milliy mafkuraga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulq-atvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak.

1. Ta'lim metodi ilmiy dalillar bilan aniq va ravshan asoslangan bo'lishi lozim.

2. Ta'lim metodlarining tizimliligi ularning samaradorlik darajasini belgilaydi.
  3. Ta'lim metodlari oldiga muqarrar sur'atda qo'yiladigan yana bir talab - ularning tushunarli bo'lishi.
  4. Bolani sezgi organlari orqali bilishga o'rgatish va o'quv jarayonida ko'rsatmali qurollardan iloji boricha ko'proq foydalanish.

5. Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan talablardan yana biri – bu bilimlarning asosli va puxta bo'lishi.Ta'limmet odlari yaxshi natija beradigan bo'lishi lozim. Ta'lim beruvchining tushuntirish va ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish usuli rejallashtirilgan yoki mo'ljallangan natijani berishi kerak.

Pedagogika fanida, o‘qituvchilaring amaliy tajribasini o‘rganish va umumlashtirish asosida ta’lim metodlarini tanlashda o‘quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog‘liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

## Ta’limning umumiy maqsadlari.

Fanning va o‘rgani1ayotgan mavzuning mazmuni hamda o‘ziga xosliklari. Biror fanni o‘qitish metodikasining o‘ziga xosliklari.

Materialni o‘rganishga ajratilgan vaqt.

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni. O‘quvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari.

O‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi.

Ta'lim muassasasining moddiy ta'minlanganigi.

O'qituvchining nazariy, amaliy va metodik tayyorlarligi, pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi.

Ta’lim metodlari ta’lim vositalari bilan birgalikda qo‘llaniladi. Ta’lim vositalari

— bu yangi bilimlarni o'zlashtirishi uchun o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalilaniladigan obyekt. Ta'lim yositalari pedagogikada katta ahamiyatga ega.

Ta’limning barcha vositalari ta’lim maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshiradi. Ta’lim vositalari o‘zida o‘quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan moddiy yoki ma’naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ular ta’lim metodlariga mos holatda foydalilanildi. Biroq agar metodlar “qanday o‘qitish?” savoliga javob bersa, vositalar esa “uning yordamida nimani o‘qitish?” savoliga javob beradi.

An'anaviy ravishda qo'llaniladigan ta'lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvallar, nutq, o'quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari kiradi. Hozirgi kunga kelib zamonaviy axborot texnika vositalari, kompyuter va internetni ham o'quv jarayonining tashkil etishida bevosita ishtirokini ko'rishimiz mumkin.

Didaktik vositalar metodlar singari ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni bajaradi. Bundan tashqari o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini hosil qilish, boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi. Didaktik vositalar audivizuallik tafsilotida motivatsion, axborot, ta’lim jarayonini boshqarish, optimallashtirish funksiyalarini bajaradi.

Ta’lim vositasi fanni o‘qitish bilan bog‘liq holda tanlanadi. O‘qituvchi o‘zining ixtiyori bo‘yicha ko‘rgazmali material, o‘quv qo‘llanmadan foydalanishi mumkin. Ta’lim vositasini qo‘llanilishining yana bir jihat, albatta, ta’lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida aks ettirishidir. Ta’lim vositasini tanlab olish ta’lim metodini tanlash bilan bog‘liq.

Hozirgi vaqtida ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagи ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlichqa qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, obrazli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

ta’lim samarasi yuqoriq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish; ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi; ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;

ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi; ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi; amalda bajarish orqali o‘rganilishi;

ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish va amalda qo‘llash o‘quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri yechimini topishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Yuqorida aytilganlardan interfaol ta’lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma’lum bo‘ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz.

Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

Eng jiddiy didaktik muammolardan biri ta’lim metodlarini tanlash nimalarga bog‘liq, degan masaladir. Didaktikaga oid adabiyotlarda ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlash va ularni qo‘llash samaradorligining turli omillar bilan bog‘liqliklari quyidagicha qayd qilinadi:

birinchidan, o‘quv mashg‘ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog‘liq; ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning harakteriga bog‘liq;

uchinchidan, ta’lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog‘liq;

to‘rtinchidan, o‘quv jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog‘liq;

beshinchidan, o‘quv jarayonining moddiy-texnik ta’minoti bilan bog‘liq; oltinchidan, o‘qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o‘quv

jarayonini tashkil etish darajasi hamda o‘qituvchining hozirgi zamon metodlari bo‘yicha bilimlariga bog‘liq. Bunda har bir shakl o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to‘plami yagona didaktik majmuani hosil qiladi. Bu didaktik majmuaning amalga oshirilishi esa, o‘quv jarayonining

psixologik-pedagogik qonuniyatlari bilan belgilanadi. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi:

Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O’quv keyslari”), “Blist-so’rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va boshqalar.

Interfaol ta’lim strategiyalari.“Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va k. Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib, ularning orasida boshqa farqlar yo’q.

Interaktiv o’yinlar tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish va ma'lumotni saqlash kabi kognitiv jarayonlarni rivojlantirishida muhim ahamiyatga ega. Bu o’yinlar o’quv viktorinalari, boshqotirmalarni yechish faoliyati yoki simulyatsiyaga asoslangan mashqlar ko’rinishida bo’lsin, talabalarni bilimlarini faol ravishda oshirishga yordam beradi va shu orqali mavzuni chuqurroq tushunishga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, ko’plab interfaol ta’lim metodlari talabalarni mavzularni o’zlashtira olmaslik muammolarini hal etishga va talabalarni bilim darajalarini oshirishga yordam beradi.

**Conclusion:** Interfaol metodlar o’qituvchi bilan o’quvchilarning faol munosabati, bir-birini to`liq tushunishga asoslanadi. Interfaol metodlarni o’quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi - dars qaysi shaklda bo`lmasin, qayerda o`ztkazilmasin, darsda o’qituvchi bilan talabalarning hamkorlikda ishlashini tashkil etishdir. O’qituvchi darsida tegishli muammolarga talabalarni jalb etishi, ularning harakatini faollashtirishi va natijada o`zlashtirishlarini ta’minlashi lozim. Bunda o’qituvchi faqat fasilitator (yo`l-yo`riq ko`rsatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi) vazifasini bajaradi. Ushbu metodlar orqali talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijobiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

#### References:

- Avlayev O.U., Jo’rayeva S.N., Mirzayeva S.P. “Ta’lim metodlari” o’quv-uslubiy qo’llanma, “Navro’z” nashriyoti, Toshkent – 2017.
- Amanova A.N. O’zbekistondagi gen muhandisligi sohasining istiqbollari va mavzuni o’qitishda interfaol metodlardan foydalanish. “Journal of Natural Science” №2(7) 2022
- Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.4. Yo’ldoshev J.G’., Usmonov S. Ilg’or pedagogik texnologiyalar. T.: O’qituvchi, 2004 yil.
- R.Yo’ldoshev, R.Xusainova, U.Bobojonova. Ta’limning interfaol

metodlari(metodik qo'llanma). Urganch-2011.

6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

